Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari .....	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari .....	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni .....	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish .....	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation .....	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni .....	1375
Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari .....	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati .	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar .....	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihibalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash .....	1411
Maxkamboyev Komil Abdulxakovich	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar .....	1416
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
Raximov Furqat Jalolovich	
Xorijiy investitsiyalarni jaib qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari .....	1431
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari .....	1437
Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
Mirzayev Bobur Soyibjonovich	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish .....	1448
Davletov Ikram Raximberganovich	
Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире .....	1452
Нуриллаев Рахмат Ярашевич	
Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klasterlash imkoniyatlardan foydalanish .....	1458
Mavlanov G'olib	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish sharoitida "yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari .....	1464
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich, Umarov Oqil Omiljonovich	
Метод проектов как одно из условия успешного формирования антикоррупционной компетенции студентов высшей школы .....	1470
Мохоров Дмитрий Анатольевич	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari va institutlari .....	1476
Askarov Zoxidjon Sadiqjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash yo'llari .....	1481
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
Marketing Mix, Retail Trade, Material Environment in Marketing .....	1485
Egamberdiyev Muzaffar	
Davlat tomonidan aholi bandligini tartibga solish ilmiy konsepsiyaning evolyutsiyasi .....	1489
Ismoilov Azizbek	
Significance of Investment Activity in Tourism and its Development.....	1493
Utkirjan Akhmedov	
Корпоративные структуры и их влияние на развитие учета и отчетности .....	1498
Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи	
Происхождение и роль социального сельского хозяйства в современной экономике .....	1506
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
Анализ конкурентной среды: примеры, методы и этапы .....	1512
Садикова Раъно Абдуллаевна	



Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili .....	1518
<b>Djalilov Dostonbek Abduaizovich</b>	
Исследование методов бетонной смеси.....	1524
<b>Шарипова Мадина Конгратбаевна</b>	
Oilaviy biznesni boshqaruv tuzilmasi .....	1532
<b>Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li</b>	
Strategies for Advancing Green Construction:	
The Influence of Business Investment in Research and Development.....	1537
<b>Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova</b>	
Kichik tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritishning asosiy shart va tamoyillari .....	1545
<b>Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li</b>	
Оптимизация корпоративного управления через сбалансированное финансовое стратегирование.....	1549
<b>Ахмедов Дишод Турсункулович</b>	
Milliy iqtisodiyotning o'sishida agroklasterlarni shakllantirish va samaradorligini oshirish hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish.....	1553
<b>Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich</b>	
Improving the Efficiency of the Organization Through the use of Innovative Models of Personnel Management.....	1559
<b>Bahodurova Sulhiya Azizhojaevna, Ahmedov Usmonjon Khaidarjonovich, Li Marina Rudolfovna, Romashkin Roman Anatolyevich</b>	
Факторы влияющие на экономический рост в развитии экономики Нового Узбекистана .....	1569
<b>Мамедов Хусан, Хамраев Олимжон Яхшибоевич</b>	
Sug'urta bozori bo'yicha risklarni baholash va obyektni sug'urtaga qabul qilishda anderryting xizmatining tutgan o'rni.....	1576
<b>Sayfulllo Mirzoyev</b>	
Klaster korxonalar faoliyatini takomillashtirishda soliq yukini yengillashtirilishi.....	1581
<b>Jabbarov Mashrab Ismoil o'g'li</b>	
Xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllarining asosiy belgi va xususiyatlari .....	1586
<b>Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li</b>	
Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini baholash .....	1589
<b>Vahobov Davron Abdujalolovich</b>	
Globallashuv jarayonlarini chuqurlashuvi davrida xalqaro turizmni rivojlanishi.....	1597
<b>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</b>	
Bandlikni taminlashda bo'sh ish o'rinalarini yaratish.....	1602
<b>Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich</b>	
Theoretical foundations of authenticity in leadership .....	1605
<b>Esanova Shohida Utkirovna</b>	
Masofaviy ta'limiň tashkil etishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari .....	1611
<b>Normurodov Akmal Muhiddin o'g'li</b>	
O'zbekiston turizmining barqaror rivojlanishida shoping turizmining ahamiyati .....	1616
<b>Fayyoza Xalimova Nafasovana</b>	
Mintaqada turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari .....	1619
<b>Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li</b>	
Iqtisodiy-matematik usullar asosida sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish yo'llari .....	1625
<b>Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li</b>	
Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1630
<b>Raxmonov Lochin To'xtamishovich</b>	
Tijorat banklari iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishini fond bozoridagi aksiyalar narxiga ta'siri tahlili .....	1636
<b>Yuldasheva Manzura Ollashkurovna</b>	
Методические аспекты обеспечение исчисления себестоимости продукции плодоводства и его совершенствование .....	1646
<b>Турсункулова Гулчирой Бурхановна, Мавлянова Дилобар Махкамовна</b>	
Устойчивое развитие компаний энергетической отрасли в узбекистане через совершенствование методологии управленческого учета в финансовом менеджменте.....	1653
<b>Глазова Марина Викторовна</b>	
Broad attraction of investments and increase their attractiveness on the basis of diversification of small business activities.....	1658
<b>Otajanov Umid Abdullayevich</b>	
Mehnat resurslarining o'zgarishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining yashirin iqtisodiyotini baholash.....	1663
<b>Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich</b>	

# TARAQQIYOT PROJECCT



Oziq-ovqat bozori shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari ..... 1667  
**Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich**



# OZIQ-OVQAT BOZORI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI



**Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich**

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada oziq-ovqat bozorining mohiyatini ochib beruvchi tadqiqotlar guruhlarga ajratilgan va zamonaviy yondoshuvlar umumlashtirilgan. Oziq-ovqat bozoriga takomillashgan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Oziq-ovqat bozorining bajaradigan vazifalari asosida segmentatsiya qilingan va iyerarxik darajalari belgilangan. Oziq-ovqat bozorida majmuaviy tavsifdagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat bozori, agrar bozorlar, qishloq xo'jaligi bozori, agrosanoat majmuasi, tarmoq xususiyatlari, tadqiqot, segmentatsiya.

**Abstract:** The article presents a grouping of studies revealing the essence of the food market and summarizes modern approaches. An improved author's definition of the food market has been developed. Segmentation was carried out and hierarchical levels were determined based on the functions of the food market. Scientific conclusions and practical recommendations on the implementation of complex measures in the food market have been developed.

**Key words:** food market, agrarian markets, agricultural market, agro-industrial complex, industry features, research, segmentation.

**Аннотация:** В статье произведено группировка исследований раскрывающее сущность продовольственного рынка и обобщены современные подходы. Разработано усовершенствованное авторское определение продовольственного рынка. Проведена сегментация и определена иерархические уровни исходя из функций продовольственного рынка. Разработаны научные выводы и практические рекомендации по реализации мер комплексного характера на продовольственном рынке.

**Ключевые слова:** продовольственный рынок, аграрные рынки, сельскохозяйственный рынок, агропромышленный комплекс, особенности отрасли, исследования, сегментация.

## KIRISH

Oziq-ovqat bozori aholining zarur miqdor va keng turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish imkoniyatini ta'minlashi lozim. Shu jihatdan oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishi asosida aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash davlatning ijtimoiy siyosati uchun dolzarb muammolar bo'lib kelgan. Oziq-ovqat bozori, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal etadi va shunga xizmat qilishi lozim. Bu muammolar sog'lom va oqilona oziq-ovqat ta'minoti asosida aholi farovonligini oshirishdan iborat.

Shuning uchun jahonda oziq-ovqat bozorini tadqiq etishga qaratilgan nazariy-uslubiy muammolarni o'rganish va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu borada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni tabiiy-iqtisodiy sharoitlar asosida ixtisoslashtirish, oziq-ovqat bozorida kapitalni jamg'arish va investitsion jozibadorlikni oshirish, eksport va import tarkibini takomillashtirish, taklif hajmi va mahsulot turlarini kengaytirish, davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy dasturlarning samaradorligini oshirish, noqulay bozor konyunkturasi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida baholanmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat bozorida iste'mol qarorlari aholining yoshi, jinsi, millati va ijtimoiy mavqeiyidan qat'i nazar o'xshash bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan



oziq-ovqat bozorida bir tomondan erkin raqobat muhit shakllangan, ikkinchi tomondan talabning to'yinganlik darajasi yuqori bo'ladi [1]. Oziq-ovqat bozori insonning mavjudligi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, mamlakat tinchligi va turmush farovonligini ifodalaydi [2]. Oziq-ovqat bozori milliy oziq-ovqat xavfsizligi ustunlaridan biri hisoblanadi va uning rivojlanishi aholi daromadlariga bog'liq [3]. Oziq-ovqat bozorining tadqiq etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish mumkin bo'lgan nuqtalar va bosqichlar aniqlanadi [4].

Rossiya Federatsiyasida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, oziq-ovqat bozori boshqa bozorlar kabi takror ishlab chiqarishning mintaqaviy shart-sharoitlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi, iqtisodiy muhitni hamda ko'p jihatdan aholining turmush darajasi va sifatini belgilovchi ijtimoiy zarur bozor hisoblanadi [5]. Oziq-ovqat bozori – bu yagona dinamik tizim bo'lib, birlamchi va ikkilamchi qayta ishlangan oziq-ovqat resurslarini oqilona shakllantirish va taqsimlashga asoslangan. Sotuvchi va xaridolarning o'zaro faoliyatini belgilovchi, ishlab chiqarish hajmi va tarkibida zarur sifat hamda narxga erishishni ta'minlovchi tizimdir [6]. Ko'p hollarda oziq-ovqat bozoriga majmua hosil qiluvchi murakkab tizim sifatida qaraladi. Jumladan, oziq-ovqat bozori – ishlab chiqaruvchilar, bozor infratuzilmasi subyektlari va iste'molchilar, shuningdek, ushbu guruhlar ichida oziq-ovqat mahsulotlariga talab va taklifni shakllantiruvchi iqtisodiy munosabatlar tizimdir [7]. Ayniqsa, oziq-ovqat bozorini qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoati, oziq-ovqat korxonalari va infratuzilma subyektlari, aholi va davlat o'tasidagi ishlab chiqarish, ayrboshlash, taqsimlash va istemol qilish bo'yicha tashkil etilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimi sifatida ko'rildi [8]. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, oziq-ovqat bozori bu – makonda to'plangan reproduktiv tizim bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish subyektlari o'tasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'zaro bog'laydigan, milliy iqtisodiyotning o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarini bajaradigan nisbatan mustaqil qismidir [9].

Xorijiy mamlakatlar va Rossiya Federatsiyasida shakllangan oziq-ovqat bozorining konsepsiysi ilmiy adabiyotlar va amaliyotda alohida qiziqish uyg'otadi hamda olib borilgan tadqiqotlarni quyidagicha umumlash-tirish mumkin:

- oziq-ovqat bozori o'ziga xos sifat jihatni va tovarlarning umumiyligi bilan boshqa bozorlardan ajralib turadi;
- oziq-ovqat bozori qishloq xo'jalik mahsulotlari va uni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlar bozorini o'z ichiga oladi. Oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyotning turli sohalarini o'zaro ta'siri orqali amalga oshiriladi va ularning umumiyligi agrosanoat majmuasi bo'lib, an'anaviy ravishda uchta sohani birlashtiradi;
- oziq-ovqat bozori "ishlab chiqarish – iste'mol" zanjirini paydo qiladi va uning doirasida mahsulotni daladan yakuniy iste'molchiga yetkazib berish uchun yig'ish, saralash, tashish, saqlash, qayta ishlash, moliyalash-tirish va qayta taqsimlash kabi vazifalarini bajaradi.

Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlar va zamonaviy yondashuvlar "oziq-ovqat bozori"ga yagona ta'rif berishga imkon bermaydi. Aksariyat hollarda oziq-ovqat bozori agrosanoat majmuasining bir qismi sifatida talqin etiladi yoki agrar bozorlar konsepsiyasiga tenglashtirilgan.

Bizningcha, agrar bozorlar ajralmas konsepsiya bo'lib, agrosanoat majmuasining barcha sohalari va yer resurslari bilan bevosita bog'langan. Bunda bozor mexanizmi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va narxni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga tenglashtirib bera olmaydi. Bu holat qishloq xo'jalik mahsulotlarining harakatchanligi bilan izohlanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining harakatchanligi sanoat tarmog'ining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Jumladan, sanoat tarmog'i qishloq xo'jaligidan daromadli sohalarga resurslarni uzatishni qiyinlashtiradi, sekinlashtiradi va ba'zan yo'l qo'ymaydi. Buning sababi qishloq xo'jaligi yerlari, qishloq xo'jaligi ekinlari, chorvachilik va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foy-dalanilmaydi.

Shuning uchun "qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori" va "agrар bozorlar" tushunchalarini bir-biri bilan taqqos-lagan holda konseptual nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil etish lozim. Ushbu bozorlar umumiyligi yondashuvda ishlab chiqarishni iste'mol bilan bog'laydi. Agrar bozorlar tarkibida bir-biri bilan bog'langan va turli xil tovar obyektiiga ega bo'lgan bozorlar vujudga keladi yoki oldi-sotdi obyekti yer, mehnat, moddiy-texnika, moliyaviy va boshqa qishloq xo'jaligi resurslari bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori esa faqat qayta ishlash sanoatiga o'tkazilgan tovarlarda namoyon bo'ladi.

Ayni paytda davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqaruvchining xaridorga biriktirib qo'yilishi mazmunan taqsimlash borasidagi munosabat bo'lsa, yetkazib berilgan mahsulot uchun haq to'lanishi ayrboshlash munosabatlaridir. Albatta, davlat buyurtmasi bo'yicha baholarning nooqilona past belgilanishi bozor munosabatlarining real iqtisodiy mazmunini buzib qo'yadi va taqsimlash ustun darajada monopsonik tus oladi. Mana shu sharoitlar bo'yicha agrar bozorlar va qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorining amal qilish mexanizmi shakllanadi.

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori tovar ishlab chiqarish xo'jalik aloqalarining ma'lum bir turini tavsi-flovchi kategoriya sifatida tadqiq etilgan [10]. Dehqon bozorining rivojlanishi nuqtayi nazaridan marketing tadqiqotlari olib borilgan [11]. Shuningdek, dehqon bozorida narxning mavsumiy o'zgarishlari tadqiq etilgan [12].



Iste'mol tovarlari bozorining tarkibida oziq-ovqat bozorini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar ham uchraydi [13]. Aksariyat hollarda oziq-ovqat bozorini tadqiq etish masalalari uning ayrim segmentlari bo'yicha amalga oshirilgan [14].

O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirsak, oziq-ovqat bozorining mohiyatini ochib beruvchi turli xil yondashuvlarni ajratib olish mumkin. Jumladan:

- ayirboshlash munosabatlari yordamida xo'jalik aloqlarini yo'lga qo'yiladi hamda oziq-ovqat mahsulotlarini oldi-sotdisi va qayta ishslash amalga oshiriladi;
- oziq-ovqat mahsulotlari bevosita qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilishini hisobga olib, oziq-ovqat bozori qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorining ajralmas qismidir;
- oziq-ovqat bozori – qishloq xo'jaligi, qayta ishslash tarmoqlari va oziq-ovqat iste'molchilar o'rtaida vositachidir;
- qishloq xo'jaligi tomonidan ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar oziq-ovqat bozorida ishlab chiqarish siklini davom ettirish uchun zarur vositalarni olish imkoniyatini beradi;
- oziq-ovqat bozori ishlab chiqarish va iste'mol qilish sohasini hamda sotish bo'yicha bozor munosabatlari me'yorda sodir etilishini ta'minlash va boshqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma sohasini qamrab oladi.

Ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat bozorini agrosanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jalik mahsulotlari bozoridagi asosiy xaridor agrosanoat majmuasining uchinchi sohasi hisoblanadi. Vositachilar ishtiroki esa bozorlarda ulgurji va chakana savdoning shakllanishiga olib keladi. Biroq qishloq xo'jalik mahsulotlari qayta ishslash jarayonidan o'tsa (agrosanoat majmuasi yakuniy mahsuloti), sanoat mahsulotiga aylanadi yoki boshqa bozor faoliyati yuzaga keladi.

Fikrimizcha, qamrab olinayotgan subyektlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha qishloq xo'jaligi bozori va oziq-ovqat bozori bir-biridan sezilarli ravishda farq qiladi. Chunki qishloq xo'jaligi bozori agrosanoat majmuasi doirasida amal qiladi hamda ishlab chiqaruvchilarni oraliq iste'molchilar bilan bog'laydi. Oziq-ovqat bozori esa qishloq xo'jalik va oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarishini aholi iste'moli bilan bog'laydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli orqali oziq-ovqat bozorining umumiyligi va o'ziga xos bo'lgan jihatlar aniqlandi. Abstraksiyalash usuli yordamida turli xil fikrlarni umumlashtirilgan natijalari shakllandi, bu esa oziq-ovqat bozoridagi o'zaro bog'liq bo'lgan hodisalarining muayyan guruhini kuzatishga va uning asl mazmunini bilib olishga imkon berdi. Tadqiqotning formal tus berilgan mantiqiy usullari orqali oziq-ovqat bozorining nazariy umumlashmasi yaratildi va ahamiyati asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat bozori – qishloq xo'jaligi, qayta ishslash tarmoqlari va oziq-ovqat iste'molchilar o'rtaсидаги “vositachidir”, deb ta'riflash ham uning faoliyatini cheklab qo'yadi. Chunki oziq-ovqat bozori ishlab chiqarishning tabiatidan kelib chiqsada, ayni paytda mustaqillikka ega va barcha takror ishlab chiqarish jarayonlariga, ularning natijalariga va samaradorligiga faol ta'sir etadi. U taqsimlash va ayirboshlash bosqichlari bilan yakunlanib qolmasdan, ishlab chiqarish siklining yangi doirasini boshlaydi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy munosabatlar tizimini o'z ichiga olgan jarayonni tavsiflaydi. Ushbu munosabatlar talab va taklif, mintaqaviy xususiyatlar hamda boshqaruv qarorlarining doimiy ta'siri ostida bo'ladi. Bu o'zinio'zi tartibga soluvchi tizim bo'lib, uzlusiz rivojlanish holatidadir.

“Oziq-ovqat bozori” tushunchasi umumiyligi qabul qilingan “bozor” tushunchasiga mos keluvchi ta'riflardan o'zining bir qator xususiyatlariga ko'ra tubdan farq qiladi. Jumladan, oziq-ovqat bozorida doimiy talabning mavjudligi, inson ehtiyojlari orqali kunlik va xafjalik mahsulotlar miqdori belgilanishi va uning o'zgartamasligi, oziqlanish uchun zarur bo'lgan mahsulotlar narxi qanday bo'lishidan qat'i nazar doimiy xarid qilinishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan boshqa bozorlardan farq qiladi. Oziq-ovqat bozori oldi-sotdi shart-sharoitlari bilan birgalikda ijtimoiy munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan va to'dirgan holda oziq-ovqat bozoriga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Oziq-ovqat bozori – takror ishlab chiqarishning mintaqaviy shart-sharoitlarini belgilaydigan, aholining keng turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan shaxsiy iste'mol sohasi va jamiyat farovonligining ko'rsatkichidir. Oziq-ovqat bozorida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan iste'mol uchun tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va agrosanoat majmuasining yakuniy (oziq-ovqat sanoati) mahsuloti oldi-sotdi obyekti hisoblanadi. Shu jihatdan oziq-ovqat bozori faqat aholi iste'moliga bog'liq bo'lgan jarayonni ifodalaydi.

Oziq-ovqat bozorining mohiyati va ahamiyati uning vazifalari orqali ham namoyon bo'ladi. Oziq-ovqat bozorining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:



- aholining yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la assortimentda qondirish;
- yalpi ijtimoiy mahsulotning bir qismini shaxsiy iste'mol uchun sotilishi. Bu oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ayrboshlashga, ijtimoiy mehnat xarajatlarini qoplashga imkon beradi. Ushbu vazifani bajarish jarayonida oziq-ovqat mahsulotlarining savdosi vujudga keladi, yangi ishlab chiqarish sikli uchun pul resurslari kelib tushadi va takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun jamg'armalar yaratiladi;
- aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini maksimal qondirishni ta'minlovchi mahsulot turi va sifatini shakllantirish. Aholi talabi va mahsulot taklifini chuqur tahlil qilish oziq-ovqat mahsulotlari turi va sifati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlab turuvchi miqdoriy o'lchamlarni shakllantirishga imkon beradi;
- ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Bu iste'molchi manfaatlarini ifodalovchi savdoning aks aloqasidan foydalaniib, ishlab chiqarishni o'zgargan talabga moslashishiga majbur etadi.

Shunday qilib, oziq-ovqat bozorining asosiy vazifalari takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlari o'rta-sidagi aloqalarni ta'minlaydi. Bunda savdo taqsimlash va ayrboshlash bosqichi sifatida takror ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib maydonga chiqadi.

Oziq-ovqat bozori bajarayotgan vazifalarga monand ravishda va har xil belgilar bo'yicha segmentatsiya qilinadi. Hududiy belgisi bo'yicha jahon bozori, xalqaro bozorlar, mamlakat ichki bozorini ajratib ko'rsatish mumkin. Ichki bozorlar doirasida milliy, mintaqaviy va mahalliy bozorlar farqlanadi. Ta'minlanganlik darajasi bo'yicha oziq-ovqat eksportchilari bo'lgan mamlakatlar bozori va oziq-ovqat importchilari bo'lgan mamlakatlar bozori ajratiladi. Tovarlar harakati shakllari va bosqichlari bo'yicha ulgurji bozor va chakana bozorga bo'linadi. Bir kishiga daromadlar darajasi va tarkibi bo'yicha turli xil imkoniyatga ega mamlakat yoki mintaqalar oziq-ovqat bozorini ajratib olish mumkin. Shuningdek, tovarlarni saqlash va sotish muddatlari bo'yicha uzoq saqlanadigan va tez buziladigan tovarlar bozoriga ajratiladi. Mahsulot belgisi bo'yicha oziq-ovqat bozorining ixtisoslashuvini aniqlash mumkin (1-jadval).

Shu jihatdan oziq-ovqat bozorining rivojlanish darajasini belgilab beruvchi shart-sharoitlarni va turli yey-raxik darajalarda ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ichki va tashqi tahdidlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifasidir.

Ma'lumki, oziq-ovqat bozori iqtisodiyot holati va jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun oziq-ovqat bozorining rivojlanishi barcha mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar darajasidan tortib, hukumat qarorlari darajasigacha doimiy kuzatib boriladi. Bozor sharoitlari uchun xos bo'lgan bog'lanishlar tahlili asosida oziq-ovqat bozorini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqiladi va davlatning oziq-ovqat siyosati amaliyotga tatbiq etiladi.

**1-jadval. Oziq-ovqat bozorining asosiy belgilari va segmentatsiyasi<sup>1</sup>**

No	Asosiy belgilari	Segmentatsiya
1.	Hududiy qamrab olinishi	Jahon bozori Xalqaro bozorlar (Yel, MDH va boshqalar) Milliy bozorlar Mintaqaviy bozorlar Mahalliy bozorlar
2.	Oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik darajasi	Ekport qiluvchi mamlakatlar bozori Import qiluvchi mamlakatlar bozori
3.	Tovarlar harakati shakli va bosqichlari	Ulgurji bozor Chakana bozor
4.	Bir kishiga daromadlar darajasi va tarkibi	Past daromadli mamlakatlar bozori O'rtacha daromadli mamlakatlar bozori Yuqori daromadli mamlakatlar bozori
5.	Tovarlarni saqlash va sotish muddatlari	Uzoq saqlanadigan tovarlar bozori Tez buziladigan tovarlar bozori
6.	Mahsulot belgisi bo'yicha	G'alla bozori Kartoshka bozori Meva va sabzavot bozori Qand bozori Go'sht va go'sht mahsulotlari bozori Sut va sut mahsulotlari bozori O'simlik moyi bozori va boshqalar

<sup>1</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



Ta'kidlash lozimki, oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishi har bir davlat uchun siyosi, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tarixiy-iqtisodiy, mintaqaviy, tabiiy omillar ta'sirida o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq. Shunga muvofiq O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ilmiy asoslangan ehtiyojlarni qondira oladigan darajaga olib chiqish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda aholining oqilona oziqlanishi uchun yetarli bo'ladigan to'lovga qobiliyatini quvvatlab turish talab etilmoqda.

Mamlakatimizda oziq-ovqat bozorini tartibga solishda uning tarkibiy mexanizmi atroficha ishlab chiqilmog'i lozim. Bu borada mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar va ko'p yillik tajribalar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga, ya'ni taklifni rag'batlantirishga qaratib kelinayotganligini ta'kidlash mumkin. Lekin bozor muvozanatiga erishish uchun nafaqat yalpi taklifni, balki yalpi talabni ham tartibga solish, undagi siljishlar, keskin ko'tarilish va pasayishni ham e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oziq-ovqat bozori, eng avvalo, mintaqalararo iqtisodiy aloqalarda qatnashishni ta'minlovchi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatining mavjudligiga asoslanadi. Bu, albatta, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari mintaqani oziq-ovqat bilan to'liq miqdorda ta'minlashi kerak degani emas. Ular aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish holatida bo'lishi va mintaqaning oziq-ovqat zaxiralarni shakllantirishda ulushi doimo o'sib borishi kerak.

Oziq-ovqat bozori har bir mamlakat iqtisodiyotida ustuvorlikka ega va majmuaviy tavsifdagi tizimli tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi, jumladan:

- milliy bozor yaxlitligini ta'minlash, mamlakat mintaqalarini tabiiy, demografik va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib ixtisoslashtirish va shu asosda o'zaro integratsion aloqalarni chuqurlashtirish;
- mintaqaning ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish bilan bir qatorda investitsiyalarni keng jalb etish va innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish, shu orqali tannarxni izchil pasaytirish va milliy mahsulotlarning import tovarlarga nisbatan narx va sifat ustunliklarini saqlab qolish;
- aholi iste'mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining optimal ulushini ta'minlash, bu borada narxning turli omillar ta'sirida keskin tebranishiga yo'l qo'ymaslik, xususan, qat'iy narx siyosatini olib borish, zaxiralar hosil qilish, mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash kabi qator mexanizmlardan samarali foydalanish;
- narxlarning doimiy oshib borishi sharoitida ichki talabni rag'batlantirish va aholining xarid qobiliyati uchun real imkoniyatlarni ta'minlaydigan daromadlarni mutanosib ravishda indeksatsiyalab borish;
- oziq-ovqat mahsulotlari eksporti va importi hajmlari o'rtaida ijobjiy balansni ta'minlash bir tomonidan, mamlakatning tashqi bosimlarga bardoshlilagini oshiradi, boshqa tomonidan, noqulay bozor konyunkturasi sharoitida ham mamlakat o'zining milliy oziq-ovqat bozori salohiyatini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barrenar R. An analysis of the decision structure for food innovation on the basis of consumer age// J. International Food and Agribusiness Management Review. – Corvallis: 2015, № 18 (3). – pp. 149-170.
2. D. John Shaw. Global Food and Agricultural Institutions. – Routledge: Taylor & Finance group, 2009. – pp. 14.
3. Capone R. Food Economic Accessibility and Affordability in the Mediterranean Region: an Exploratory Assessment at Micro and Macro Levels// Journal of Food Security. – Newark: 2014, № 1. – pp. 1-12.
4. Kim S.G. A critical analysis of U.S. food safety policy structure and its characteristics focusing on food safety control systems and information regulations// The Agricultural Marketing Journal of Japan. – Tokyo: 2004, № 2. – pp. 45-55.
5. Стуканова И.П. Маркетинговое управление региональным потребительским рынком продовольственных товаров (на примере Приволжского федерального округа): Автореф. дис. ... док. экон. наук. – М.: РЭА, 2009. – С. 13.
6. Киселева Е.Н., Власова О.В., Коннова Е.Б. Рынок продовольственных товаров (Учебное пособие). – М.: Вузовский учебник, 2009. – С. 22.
7. Зинчук Г.М. Развитие продовольственного рынка: теория, методология, практика: Автореф. дис. ... док. экон. наук. – Йошкар-Ола: Марийский ГТУ, 2009. – С. 8.
8. Улезъко А.В., Пашина Л.Л. Рынок продовольственных ресурсов в системе обеспечения продовольственной безопасности Дальнего Востока (Монография). – Воронеж: Воронежский ГАУ, 2014. – С. 24.
9. Шардан С.И. Пространственно-функциональная асимметричность развития агропродовольственного рынка региона и методологические аспекты ее разрешения: Автореф. дис. ... док. экон. наук. – Нальчик: 2015. – С. 24.
10. Хусанов Р.Х., Додобоев Ю.Т., Додобоев Д.Ю. Агросаноат комплекси иқтисодиёти (Ўқув қўлланма). – Тошкент: Қувасой тадбиркорлик ўқув илмий ишлаб чиқариш Маркази, 2003. – Б. 94-96.
11. Иватов И. Развитие дехканского рынка в Узбекистане. – Тошкент: Фан, 1994. – 112 с.
12. Дехқонов М. Дехқон бозорларида товарлар нарх-навоси ўзғаришининг эконометрик тадқиқоти: Иқтисод фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ФА Кибернетика ИИЧБ, 2001. – 23 б.
13. Камилова Ф.К. Потребительский рынок Узбекистана и роль демографических факторов в его развитии: Автореф. дис. ... док. экон. наук. – Ташкент: АГОС, 2003. – 43 с.; Мадияров Ф.А. Истеммол товарлари бозорида маркетинг



- ТИЗИМИНИ ривожланиши (озиқ-овқат товарлари мисолида): Иқтисод фан. ном. дис. ... автореф. – Тошкент: ТДИУ, 2008. – 23 б.
14. Мухиддинова У.С. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мева-савзавотчилик маҳсулотлари бозорини ривожлантириш йўналишлари: Иқтисод фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент: БМА, 2010. – 37 б.
15. Sotvoldiev N., Rahmonov N. Improving government regulation of the food market// J. NeuroQuantology. – London: № 18, 2022. – pp. 172-178. <https://www.neuroquantology.com>

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

---

2023. № 11-12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oly  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.